

O‘ZBEKISTONDA MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Maxmasobirova Nigora Uktam qizi

PhD, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi

Saydaliyev Javoxir Nuriddin o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank va moliya akademiyasi magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS/IFRS) joriy etish jarayoni, uning huquqiy asoslari, bosqichlari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Xususan, PQ–4611, PF–5953, PQ–210 kabi qaror va farmonlar asosida mamlakatda MHXSni joriy qilish choralari tahlil qilingan. Shuningdek, MHXSni tatbiq etishda mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan va MHXSning mamlakat iqtisodiy islohotlari va investitsion jozibadorlikni oshirishdagi strategik ahamiyati asoslab berilgan.

***Kalit so‘zlar:** moliyaviy hisobot, MHXS, buxgalteriya hisoboti, shaffoflik va taqqoslash, huquqiy asoslar, raqamlashtirish, O‘zbekiston iqtisodiyoti.*

АННОТАЦИЯ

В статье освещается процесс внедрения международных стандартов финансовой отчетности (МСФО/IFRS) в Узбекистане, их правовые основы, этапы внедрения и практическое значение. В частности, проанализированы меры по внедрению МСФО в стране на основе таких решений и указов, как ПҚ–4611, ПФ–5953, ПҚ–210. Также указаны существующие проблемы при применении МСФО и пути их устранения. В исследовании обосновано стратегическое значение МСФО в проведении экономических реформ и повышении инвестиционной привлекательности страны.

***Ключевые слова:** финансовая отчетность, МСФО, бухгалтерский учет, прозрачность и сопоставимость, правовые основы, цифровизация, экономика Узбекистана.*

ABSTRACT

The article highlights the process of implementing International Financial Reporting Standards (IFRS) in Uzbekistan, along with their legal foundations, stages, and practical significance. In particular, the measures for introducing IFRS in the country are analyzed based on decrees and resolutions such as PQ–4611, PF–5953, and PQ–210. The existing challenges in applying IFRS and the ways to overcome them are also discussed. The research substantiates the strategic importance of IFRS

in advancing economic reforms and enhancing the country's investment attractiveness.

Keywords: *financial reporting, IFRS, accounting, transparency and comparability, legal framework, digitalization, economy of Uzbekistan.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, taqqoslanishi va xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash har bir mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS) xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy natijalarini obyektiv va taqqoslanadigan tarzda aks ettirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham, ushbu standartlarning joriy qilinishi investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy kapitalni jalb etish va xalqaro kredit reytinglarini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari jamg'armasi (MHXS Jamg'armasi) va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha Kengash tomonidan ishlab chiqiladigan mazkur standartlar dunyoning 150 dan ortiq yurisdiksiyalarida keng qo'llanilib ¹, O'zbekistonda ham mazkur standartlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy hisob tizimini yaratish va takomillashtirish va keyinchalik moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish borasida qator qadamlar tashlangan bo'lsa-da, mazkur standartlardan yanada keng foydalanish 2017-yildan boshlab yangi bosqichga chiqdi. Bu jarayonda so'nggi yillarda qabul qilingan bir qator huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-martdagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-sonli Farmoni (yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda MHXSni bosqichma-bosqich joriy etish) muhim rol o'ynadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirish maqsadida 2025-yilning 8-aprelida qabul qilingan "2025–2030 yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 210-son qarorida ham mazkur yo'nalishdagi asosiy vazifalar belgilab

¹ <https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/about-us/who-we-are/who-we-are-russian-v2.pdf>

berilgan². Shu sababli ham mamlakatimizda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini yanada keng joriy qilish va ularni qo'llash tizimini takomillashtirish asoslarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS — International Financial Reporting Standards) – bu butun dunyo bo'ylab moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda yagona yondashuvni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan standartlar to'plami bo'lib, ular kompaniyalar moliyaviy holatini aniq va taqqoslanadigan tarzda aks ettirishlari uchun xizmat qiladi³. Hozirgi kunda IFRS bo'yicha 17 ta asosiy standart (IFRS 1 dan IFRS 17 gacha) mavjud. Bundan tashqari, eski IAS (International Accounting Standards) — Xalqaro buxgalteriya standartlari mavjud bo'lib, ular IAS 1 dan IAS 41 gacha yetib boradi. Ularning ba'zilar hali ham qo'llanilib, umumiy hisobda 42 ta amaldagi standartlar mavjuddir⁴.

MHXS bo'yicha ilk ilmiy izlanishlar, akademik muhokamalar 1970–80-yillardan boshlanib, 2001-yildan IASB (International Accounting Standards Board) tuzilgach tezlashdi va yangi bosqichga chiqdi. Dastlabki yirik tadqiqotlar MHXSning foydasi ijro va institutlarga qattiq bog'liqligini, sifat oshishi esa avtomatik amalga oshmasligini ko'rsatgan⁵ bo'lsa, keyingi empirik dalillar majburiy MHXSga o'tish kuchli ijro va “haqiqiy moslashuv” mavjud bo'lgan mamlakatlarda bozor likvidligi, qiymat mosligi va hisob sifati yaxshilanishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi⁶. Xorijiy adabiyotlarda, shuningdek, MHXSni amaliyotga keng tatbiq etishda institutsional-mafkuraviy omillar va amaliyotchilar qarashlari ham muhim omilligi ta'kidlandi⁷ hamda ayrim mintaqalarda qiymat-moslikning oshishi bozor infratuzilmasi va nazorat sifati bilan birga namoyon bo'lishini ko'rsatdi⁸.

² <https://lex.uz/docs/-4746047?ONDATE=23.08.2021%2000;> <https://lex.uz/docs/-4751561;> <https://lex.uz/uz/docs/-7469803> 210-son 08.04.2025. 2025-2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida

³ <https://www.ifrs.org> IFRS Foundation va IASB rasmiy sayti

⁴ <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/>

⁵ Ball, R. International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and Cons for Investors // *Accounting and Business Research*, 36(suppl 1), 2006. – P. 5–27.; Hail, L., Leuz, C., & Wysocki, P. (2010). Global Accounting Convergence and the Potential Adoption of IFRS by the U.S. // *Accounting Horizons*, 24(3–4), 2010. – P. 355–394.

⁶ Daske, H., Hail, L., Leuz, C., & Verdi, R. Mandatory IFRS Reporting around the World: Early Evidence on the Economic Consequences // *Journal of Accounting Research*, 46(5), 2008. – P.1085–1142.

⁷ Mantzari, E., Sigalas, C., & Hines, T. Adoption of IFRS by Greek Non-listed Companies: The Role of Coercive and Hegemonic Pressures // *Accounting Forum*, 41, 2017. – P. 185–205; Mantzari, E., & Georgiou, O. Ideological Hegemony and Consent to IFRS: Insights from Practitioners in Greece // *Critical Perspectives on Accounting*, 59, 2018. – P.70–93.

⁸ Özcan, A. Assessing the Effects of IFRS Adoption on Economic Growth: A Cross-Country Study // *International Journal of Social Sciences*, 2(2), 2016. – P. 65–80.; Eryılmaz, Ü., & Koçak, D. The Impact of IFRS Adoption on Global Competitiveness // *Sayıştay Dergisi*, 133,2024. – P. 179–210.

MDH mintaqasida tadqiqotlar milliy standartlar va MHXS o'rtasidagi farqlar, "adolatli qiymat" konsepsiyasining qiyinchiliklari hamda audit amaliyotidagi moslashuv muammolarini yoritgan bo'lsa⁹, O'zbekistonda ilmiy izlanishlar mustaqillikdan keyin rivojlanib, so'nggi yillarda MHXSga o'tish bosqichlari, kadrlar salohiyati, normativ uyg'unlik va bank sektorida "adolatli qiymat"ni qo'llashning amaliy masalalariga urg'u berilmoqda¹⁰.

Yuqoridagilardan umumlashtirib aytish mumkinki, tadqiqotlarga ko'ra MHXS samaradorligi huquqiy ijro, bozor infratuzilmasi va professional kompetensiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni amaliyotga kech joriy etish va foydalanishni takomillashtirish kompleks islohotlar bilan birga amalga oshirilishi lozim.

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan, xususan analiz va sintez, huquqiy tahlil, taqqoslash usuli, ilmiy kuzatish kabi metodlardan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Bugungi kunda moliyaviy axborotning aniqligi, shaffofligi va taqqoslanishi alohida ahamiyat kasb etadi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) har bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. MHXS moliyaviy hisobotlarni butun dunyo bo'ylab uyg'unlashtirish, ularni yagona metodologik asosda muvofiqlashtirish va takomillashtirish imkonini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, investitsion muhitning barqarorligini ta'minlab, investorlar uchun ishonchli, haqqoniy va solishtiriladigan axborot manbai vazifasini bajaradi. Ushbu axborot asosida investorlar o'z qarorlarini ongli ravishda qabul qilishlari, mavjud xatarlarni baholab, istiqbolli imkoniyatlarni aniqlashlari mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasining barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir."¹¹. Shuningdek, "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asoslanib ishlab chiqilgan hamda yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham iqtisodiy

⁹ Dzhambakieva, G. S. . Accounting for Financial Instruments: The Main Differences According to National Accounting Standards of Uzbekistan and IFRS. *Byulleten' nauki i praktiki*, 7(7), 2021. – P.245–249;

¹⁰ Shamsitdinova, X. The Adoption of International Accounting Standards in Uzbekistan: A Review of Progress and Challenges // *Economics and Innovative Technologies*, 11(5), 2023. – P. 53–58.; Uzoqova, F. B. Transformation of the Financial Sector of the Republic of Uzbekistan: Transition to IFRS. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 35,2023. – P. 53–59; Aytmurodova, R. Printsipy "spravedlivoy stoimosti" v MSFO: dostoinstva i problemy primeneniya v bankakh Uzbekistana. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 3(4), 2025.

¹¹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 66 б.

sohani, xususan bank-moliya tizimini rivojlantirishning bir qator ustuvor vazifalari belgilab berilgan¹².

Mamlakatimizda 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 14 226 tani tashkil etgan bo'lib, Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, shundan 4 576 tasi qo'shma korxonalar va 9 650 tasi xorijiy korxonalar hisoblanadi¹³. Shuningdek, mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar hajmi ham ortib bormoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tashkil etish va yuritishni talab qiladi.

O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich va strategik yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Bu jarayon "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, iqtisodiyotning ochiqligi, investorlar uchun ishonchli muhit yaratish va xalqaro moliyaviy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda MHXSni joriy qilish jarayonini va har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha tadqim etish mumkin:

1. Dastlabki bosqich – huquqiy asoslar va strategik hujjatlar qabul qilindi. MHXSga o'tish bo'yicha asosiy huquqiy zamin 2010-yili Prezident qarori bilan boshlangan va keyinchalik 2015–2018 yillarda aksiyadorlik jamiyatlariga xalqaro standartlar asosida hisobot tayyorlash va audit o'tkazish majburiyati yuklatildi. Biroq, o'sha davrda mutaxassislarning yetishmasligi, til to'siqlari va metodologik qiyinchiliklar sababli keng amaliyot shakllanmadi.

2. Standartlarni tarjima qilish va normativ-huquqiy integratsiyasini ta'minlash davri: 2013-yili MHXS hujjatlari ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilindi. Biroq ularning yangilanmasligi va huquqiy kuchga ega bo'lmaganligi sababli, real qo'llanish darajasi past bo'ldi. 2020 yili qabul qilingan PQ-4611-son qarori esa MHXSni joriy etishda yangi bosqichni boshlab berdi.

3. Amaliyotga keng joriy etish bosqichi: MHXSni 2020-yildan boshlab amaliyotga keng joriy etish belgilandi. MHXS asosida ishlashi kerak bo'lgan tashkilotlar ro'yxati tasdiqlandi va har bir bunday tashkilotda kamida uch nafar sertifikatlangan MHXS mutaxassisi bo'lishi belgilandi. Bu esa soha vakillarining malaka oshirishini jadallashtirdi.

4. O'quv va malaka tizimi shakllantirildi: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha o'quv dasturlari, imtihon tizimi va malaka sertifikatlari joriy

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni (<https://lex.uz/uz/docs/-5841063>)

¹³ <https://kun.uz/kr/news/2024/05/06/ozbekistonda-qaysi-davlatlar-kapitali-ishtirokidagi-korxonalar-soni-kop>

qilindi. 2021-yili hukumat qarori asosida buxgalterlar uchun xalqaro imtihon xarajatlarini qoplash tartibi ham ishlab chiqildi¹⁴.

Ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonda MHXSni joriy etishning muhim tayanch nuqtasi bu – huquqiy asosdir. 2016-yilda qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun bu yo'nalishda tub burilish yasadi. Mazkur hujjatda xalqaro standartlarga moslashgan asosiy qoidalar belgilandi va keyinchalik ular Prezident qaror va farmonlari orqali amaliyotga keng tatbiq qilindi. 2020-yilda qabul qilingan PQ-4611 Qarori banklar va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun MHXS asosida hisobot yuritishni majburiy qilib belgilagan bo'sa, PF-5953 farmoni orqali "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili" davlat dasturida MHXS bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi ustuvor vazifa sifatida ko'rsatildi. Vazirlar Makhmasining 2025-yildagi 210-sonli qarori esa davlat moliya tizimini to'liq MHXSga o'tkazish jarayonini nazarda tutib, huquqiy bazani yanada mustahkamladi.

Umumiy qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyotni raqamlashtirish, axborotning shaffofligini ta'minlash va investorlar ishonchini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. MHXSni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan qonunchilik bazasi ushbu standartlarni amaliyotga tatbiq etish uchun mustahkam poydevor vazifasini bajarmoqda. Qabul qilingan qaror va farmonlar, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali korxonalarining xalqaro moliyaviy muhitga integratsiyalashuviga keng yo'l ochildi. Ayniqsa, MHXS asosida hisobot yuritish bo'yicha majburiyat yuklatilgan yirik xo'jalik subyektlari bu sohadagi islohotlarning jadallashishiga turtki bermoqda. Kelgusida ushbu standartlarning yanada kengroq joriy qilinishi korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, xalqaro moliyaviy tizim bilan uyg'unlashuvni kuchaytirish hamda mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida ta'kidlangandek, mamlakatimizda iqtisodiyotni bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish va moliyaviy axborotning ochiqligi hamda ishonchliligini ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu standartlarni to'liq va samarali tatbiq etish yo'lida qator muammolar mavjud bo'lib, ular ilmiy tahlil va tizimli yechimlarni talab etadi.

O'zbekistonda MHXSni joriy etishda bir qator muammolar ham kuzatilmoqda va ularga quyidagilarni kiritish mumkindir:

¹⁴ F.Ergasheva. O'zbekistonda moliyaviy hisobot xalqaro standartlarga o'tishda dastlabki qadamlar va kelib chiqish tarixi // Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – Jild:03 nashr: 05 2024 yil. – 4 b.

- malakali mutaxassislar yetishmovchiligi: MHXS bo'yicha xalqaro sertifikatlariga ega buxgalterlar soni cheklangan va bu ko'p hollarda hisobot sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

- milliy buxgalteriya standartlari bilan MHXS o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligi: masalan, asosiy vositalar qayta baholanishi, nomoddiy aktivlarning tan olinishi yoki zahiralar shakllanishi masalalarida milliy amaliyot bilan xalqaro talablarda tafovut bor. Bu esa hisobotlarni moslashtirishda qo'shimcha vaqt va xarajat talab qiladi.

- axborot texnologiyalari va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zaruratining mavjudligi: MHXSning to'liq joriy qilinishi uchun zamonaviy dasturiy ta'minot, integratsiya qilingan axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan hisob-kitob platformalari talab etiladi.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda ayrim buxgalterlar va moliyaviy menejerlar an'anaviy hisob yuritish usullariga ko'proq o'rgangan bo'lib, xalqaro standartlarni joriy etishda ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda. Bu holat esa faqat bilim emas, balki yondashuvdagi farqlarni ham ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim rahbariyat va aksiyadorlar MXXS bo'yicha hisobotlarning oshkoraligi hamda real natijalarni aks ettirishidan xavotirda bo'lishi mumkindir.

Ammo ta'kidlash kerakki, istiqbolda ushbu muammolarni hal qilish orqali MHXSning samarali qo'llanilishi ta'minlanadi. Ushbu yo'nalishdagi muammolarni tizimli yondashuv, huquqiy va institutsional islohotlar, kadrlar tayyorlash dasturlarini kuchaytirish, axborot texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish orqali bartaraf etilishi lozim. Shu bilan birga, davlat tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy va maslahat ko'magi ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekistonda MXXSni samarali joriy etish uchun ustuvor yo'nalishlar:

1. Mutaxassislar malakasini oshirish – oliy ta'limda MXXS bo'yicha dasturlarni kengaytirish, xalqaro sertifikatlash kurslari (ACCA, DipIFR va b.)ni ko'paytirish, amaliy seminar va treninglarni rivojlantirish.

2. Raqamlashtirishni kuchaytirish – MXXS asosidagi dasturlarni (ERP, 1C-IFRS va b.) joriy etish, ularni muntazam yangilash, elektron hisobot tizimini yo'lga qo'yish.

3. Qonunchilikni moslashtirish – Buxgalteriya hisobi va soliq qonunchiligini MXXS talablariga yaqinlashtirish, hisob-kitobdagi tafovutlarni bartaraf etish.

4. Kichik va o'rta biznes uchun yengilliklar – IFRS for SMEsni joriy etish, qo'llanmalar, namuna shakllar va bepul dasturlar bilan ta'minlash.

5. Audit va nazoratni takomillashtirish – mustaqil audit sifatini oshirish, regulyatorlar faoliyatini kuchaytirish.

6. Axborot-kommunikatsiya ishlari – MXXSning foydasi haqida keng tushuntirish, OAV va onlayn platformalarda materiallar tayyorlash.

7. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash – korxonalarga imtiyozlar, grantlar ajratish, maslahat xizmatlarini taklif etish.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, MHXSning joriy qilinishi O‘zbekiston iqtisodiy siyosati uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, milliy moliyaviy tizimning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi. Bu yo‘nalishda kelgusida O‘zbekiston uchun asosiy vazifalar MHXS bo‘yicha kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, axborot texnologiyalari va moliyaviy tizimlarni modernizatsiya qilish, milliy va xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish hisoblanadi. Shunday qilib, MHXSni joriy etish mamlakatning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini tezlashtiradi, xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytiradi va barqaror iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ball, R. *International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and Cons for Investors* // Accounting and Business Research, 36(suppl 1), 2006. – P. 5–27.
2. Daske, H., Hail, L., Leuz, C., & Verdi, R. *Mandatory IFRS Reporting around the World: Early Evidence on the Economic Consequences* // Journal of Accounting Research, 46(5), 2008. – P. 1085–1142.
3. Hail, L., Leuz, C., & Wysocki, P. *Global Accounting Convergence and the Potential Adoption of IFRS by the U.S.* // Accounting Horizons, 24(3–4), 2010. – P. 355–394.
4. Dzhambakieva, G. S. *Accounting for Financial Instruments: The Main Differences According to National Accounting Standards of Uzbekistan and IFRS* // Byulleten' nauki i praktiki, 7(7), 2021. – P. 245–249.
5. Mirziyoyev, Sh. M. *Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 66 b.
6. Özcan, A. *Assessing the Effects of IFRS Adoption on Economic Growth: A Cross-Country Study* // International Journal of Social Sciences, 2(2), 2016. – P. 65–80.
7. Eryılmaz, Ü., & Koçak, D. *The Impact of IFRS Adoption on Global Competitiveness* // Sayıştay Dergisi, 133, 2024. – P. 179–210.

8. Ergasheva, F. *O‘zbekistonda moliyaviy hisobot xalqaro standartlarga o‘tishda dastlabki qadamlar va kelib chiqish tarixi* // Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – Jild: 03, nashr: 05, 2024. – 4 b.
9. Shamsitdinova, X. *The Adoption of International Accounting Standards in Uzbekistan: A Review of Progress and Challenges* // Economics and Innovative Technologies, 11(5), 2023. – P. 53–58.
10. Uzoqova, F. B. *Transformation of the Financial Sector of the Republic of Uzbekistan: Transition to IFRS* // Academic Journal of Digital Economics and Stability, 35, 2023. – P. 53–59.
11. Aytmurodova, R. *Printsipy “spravedlivoy stoimosti” v MSFO: dostoinstva i problemy primeneniya v bankakh Uzbekistana* // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 3(4), 2025.
12. Mantzari, E., Sigalas, C., & Hines, T. *Adoption of IFRS by Greek Non-listed Companies: The Role of Coercive and Hegemonic Pressures* // Accounting Forum, 41, 2017. – P. 185–205.
13. Mantzari, E., & Georgiou, O. *Ideological Hegemony and Consent to IFRS: Insights from Practitioners in Greece* // Critical Perspectives on Accounting, 59, 2018. – P. 70–93.

Qonunchilik va rasmiy hujjatlar:

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. lex.uz
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2025-yil 8-apreldagi PQ-210-son qarori. lex.uz
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarori “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. lex.uz
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarori va boshqa hujjatlar. lex.uz

Sayt manbalari:

18. [IFRS Foundation va IASB rasmiy sayti](http://www.ifrs.org)
19. [IFRS Who we are \(rus tilida, PDF\)](#)
20. [Kun.uz: O‘zbekistonda qaysi davlatlar kapitali ishtirokidagi korxonalar soni ko‘p](http://kun.uz)